UO‘K 338.48-2-053.6(575.1) (091)

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA BOLALAR OROMGOHLARINING TURIZM RIVOJIDAGI O‘RNI

M.Sh. Mansurov

Tadqiqotda sovet hokimiyati davrida O‘zbekistondagi bolalar va yoshlar turizmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Davr matbuoti asosida yoshlar turizmining rivojlanish shakllari va xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalar oromgohlarida dam olishni tashkil qilish borasidagi ishlarni o‘rganish orqali yoshlar turizmining “sovetcha” usuli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *bolalar oromgohlari, mehnat oromgohlari, yoshlar turizmi, yozgi ta’til, maktab oromgohlari, kolxoz oromgohlari.*

В исследовании представлена информация о детском и молодежном туризме в Узбекистане в советский период. На материалах прессы того периода проанализированы формы и особенности развития молодежного туризма. Путем изучения мероприятий, связанных с организацией отдыха в детских лагерях, раскрыта “советская” методика детско-юношеского туризма.

Ключевые слова: *детские лагеря, трудовые лагеря, детско-юношеский туризм, летние каникулы, школьные лагеря, колхозные лагеря.*

Turizmning yo‘lga qo‘yilishi XX asr 30-yillarining xalq ta’limi sohasidagi eng katta yutug‘i sifatida qaraladi. Xalq ta’limida barcha ijtimoiy va tabiiy fanlarni ekskursiya bilan birga olib borish tizimi joriy etilib, ekskursovodlarni o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Tabiatga, tarixiy-inqilobiy hamda sanoat hududlariga ekskursiyalar muntazam tashkil etib borilgan. Har bir maktabda turizm sohasini targ‘ib qiluvchi “savodxonlik maktablari” tashkil etilgan [1].

1922-yildan 1940-yilgacha kasaba uyushmalari oromgohlari 10 barobar ko‘paygan hamda 1925-yildan 1950-yilga qadar kasaba uyushmalari oromgohlarini qurish, jihozlash maqsadida 15 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan [2]. O‘zbekistonda yoshlar dam olishi uchun 1927-yilda Chirchiq shahrida “Oktabrning 10 yilligi” dam olish uyi tashkil etilgan bo‘lib, yil davomida ishlaydigan oromgoh hisoblangan. Oromgoh hududi jami 38 gektar bo‘lib, yoz mavsumida har 12 kunda 660 nafar, qish mavsumida esa 550 nafar kishi dam olib, salomatligini tiklash imkoniyatiga ega bo‘lgan [3]. Ikkinchi jahon urishidan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani singari turizm sohasida ham qayta tiklanish jarayonlari boshlandi. Jumladan, Chotqol tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi hududida 1947-yilda Yusupxona qishlog‘ida 8 ta tur baza va 9 ta bolalar oromgohi tashkil etilgan [4. B. 91]. Ammo, shuni alohida qayd etish lozimki, 1950-yillardan turizm sovuq urish sharoitida o‘zaro moslashgan holatda rivojlana boshladi. Buning asosiy sababi shundaki, turizmga xorijlik yoshlarga yoshlar orqali ta’sir ko‘rsatish mexanizmi sifatida qaralgan. 1957-yilda Butunjahon yoshlar va talabalar festivali o‘tkazilishi munosabati bilan yoshlar turizmining tashkiliy mexanizmi va modeli ishlab chiqilgan. Yoshlar turizmi nisbatan arzon tur bo‘lib, arzon sayohat chiptalari bilan ahamiyatga ega bo‘lsa-da, poyezdlarda o‘rindiqlarning yetishmasligi, talabalar yotoqxonasida sharoitning u darajada yaxshi bo‘lmaganligi tufayli noroziliklarga ham sabab bo‘lgan [5].

1950-yilda Kasaba uyushmalari markaziy komitetining “1950-yilning yozi davrida bolalar bilan ishlash to‘g‘risida”gi qarori bajarilishiga Qashqadaryo oblastida e‘tibor berilmagan. Pioner oromgohlarining ahvoli qoniqarsizligicha qolgan, ular ta’mirlanmagan, zarur jihozlar bilan ta’minlanmagan. Chiroqchi va Yakkabog‘ rayonidagi pioner oromgohlarida umuman ta’mirlash ishlari amalga oshirilmagan [**6**].

“Sputnik” bolalar turistik tashkilotining tashabbusi bilan Moskva shahrida 1957-yilda Yoshlar forumining o‘tkazilishi barcha ittifoqdosh respublikalar yoshlarining o‘zaro birla-

shishi hamda fikr almashishi uchun zamin yaratgan. Sovet hokimiyatining ham asosiy maqsadi bevosita internatsional millatni shakllantirish bo‘lganligi tufayli o‘quvchi va talabalarga mo‘ljallangan festivallar tashkil etishga alohida ahamiyat qarata boshladi. “Sputnik” turizm byurosiga yoshlar turizmini yanada rivojlantirish maqsadida mehmonxona va turistik bazalar tashkil etish yoki qurish uchun imtiyozlar berilgan. 1958-yil 24-iyunda “Xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan sayyohlik almashinuvini tashkil etish to‘g‘risida” Komsomol markaziy qo‘mitasi byurosining qarori chiqdi. Natijada, ittifoqdosh respublikalar hududlarida ham xalqaro oromgohlar tashkil etildi. Bu o‘z navbatida xorijlik yoshlar bilan tajriba almashish imkoniyatini ham berdi [7. B. 91-98].

“Sputnik” bolalar turistik tashkiloti tomonidan nafaqat 16 yoshdagilar uchun, shuningdek, 30 yoshgacha bo‘lgan talabalar hamda 12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar orasida sayyohlikni targ‘ib qilish, eng avvalo, sovet davlati ulug‘vorligini xorijliklarga namoyish etish uchun do‘stlik uchrashuvlari, badiiy kechalar muntazam tashkil etib borilgan. Yosh sayyohlarga mo‘ljallangan “Yoshlar tinchlik marshi”, “Birdamlik”, “Yoshlik start oladi”, “Komsomol – mening taqdirim” tematik marshrutlari ham ishlab chiqilgan [8]. 1958-yildan 1986-yilgacha “Sputnik” xorijiy kompaniyalar bilan ikki tomonlama hamkorlik doirasida 6,3 million sovet va xorijlik yoshlarni sayohatga jalb qilgan [9].

Yoshlarning dam olishini rag‘batlantirish maqsadida pioner oromgohlari tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilgan. Pioner oromgohi 7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash hamda sog‘lomlashtiruvchi muassasa bo‘lib, yozgi va qishki ta’til vaqtida komsomol komiteti, xalq maorifi, sog‘liqni saqlash organlari kasaba uyushmalari hamkorligida tuzilgan. Shaharda qolgan o‘quvchilar uchun ham alohida pioner oromgohlari tashkil etilgan. Bu yerda bolalar faqat kunduz kunlari bo‘lgan. 5-sinfdan 10-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun sog‘lomlashtiruvchi, turistik, harbiy-sport, ixtisoslashgan, mehnat dam olish oromgohlari tashkil qilingan. Har bir pioner oromgohida pioner drujinasi tashkil etilgan. Bolalarning qiziqishiga qarab turli to‘garaklar faoliyat olib borgan. Pioner oromgohlari ishi maktab pioner ishining davomi deb qaralib, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, o‘rtoqlarcha hamkorlik va bir-biriga do‘stona g‘amxo‘rlik kabi prinsiplarga asoslangan. Toshkentda respublika bolalar ekskursiya-turistik stansiyasi tomonidan har yili yozgi ta’til vaqtida maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli poxod va ekskursiyalar uyushtirilgan [10].

1956-yilda respublika bo‘yicha 2,2 million o‘quvchi va yoshlar har xil turdagi dam olishga jalb etildi. Birgina Andijon oblastida 180 ta pioner oromgohida 150 mingdan ziyod bolalar dam olgan. Mavjud imkoniyatlar to‘liq ishga solinmaganligi tufayli Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo hamda Qoraqalpog‘iston ASSR hududlarida reja bajarilmagan [11]. 1960-yil 1-iyundan Bo‘stonliq rayonida “Yosh o‘lkashunos” respublika tog‘ turistik oromgohi faoliyat boshladi. Bu yerda bir mavsumda 700 nafar o‘quvchi dam olgan. Ular tog‘larga ekskursiyalarga chiqib, “Yosh turist” va “SSSR turisti” nishoni uchun norma topshirishi mumkin bo‘lgan. Bu oromgohga Tojikiston va Qirg‘izistondan, Moskva, Leningrad va Riga shaharlaridan dam oluvchilar kelib turgan [12].

O‘zbekistonlik yoshlar uchun nafaqat respublikada mavjud dam olish joylariga, shuningdek, ittifoqning mashhur kurort maskanlari hamda tarixiy joylariga ham sayohatlar muntazam tashkil etilgan. Jumladan, andijonlik yoshlar aviatsiya shahri Chkalovga sayohat qilib, bu yerdagi aviatsiya tarixi muzeyida bo‘lishgan. Shuningdek, Volga sohilidagi “Sokol” oromgohida uchrashuvlar tashkil etilgan. Dekadaning so‘nggi ikki kuni Moskva shahrida o‘tkazilgan [13]. Andijon oblasti Moskva rayonining kolxozlararo “Beshariq” pionerlar oromgohi Shahrixon shahriga yaqin joylashgan. Hududining bir qismida “Shahrixon” nevrologik sanatoriyasi joylashgan. Oromgoh sanatoriy tipida bo‘lib, unda 28 kun dam olish mumkin bo‘lgan. Bolalar fizioterapiya usulida davolangan hamda kuchaytirilgan rejimda ovqatlantirilgan. 700 nafar o‘quvchiga mo‘ljallab yotoq korpuslari barpo qilingan [14]. Arslonbob oromgohlarida 6 smenada dam olish tashkil qilingan bo‘lib, nafaqat Andijon oblasti pioner yoshlari, shuningdek, Toshkent shahridan ham o‘quvchilar dam olgani kelgan [15].

Andijon oblastida 1970-yilda 283 ta pioner oromgohi faoliyat olib borgan, ularda 209 ming o‘quvchi dam olish imkoniyatiga ega bo‘lgan [16]. 1972-yilda Lenin nomidagi Butunittifoq pio-

nerlar tashkilotining 50 yilligi munosabati bilan Andijon oblastida yubileyni tantanali nishonlash maqsadida “SSSR – mening Vatanim” nomli ekspeditsiya o‘tkazilgan. Andijon shahrida 118 ta otryad, Leninsk shahrida 11 ta, Andijon rayonida 80 ta, Qo‘rg‘ontepada 60 ta, Baliqchida 40 ta, Izboskanda 40 ta, Marhamatda 26 ta ortyad tashkil etilgan. Oblast bo‘yicha 13717 nafar pionerni uyushtirgan 639 ta otryad vujudga keldi. Maktablarning tarix, geografiya, biologiya o‘qituvchilaridan 551 nafari ularga yordam berish uchun birlashtirilgan. Ekskursant-turist bolalar oblast stansiyasi otryad shtabi hisoblangan [17].

Andijon oblasti Bog‘ishamol pionerlar oromgohida oblastning 400 nafar maktab o‘quvchisi 11 oblast slyotida ishtirok etgan. Komandalar o‘rtasida palatkalarni tez o‘rnatish, dam olish zonalarini toza tutish, tepalikka ko‘tarilish musobaqalari o‘tkazilgan. Musobaqada Leninsk shahar pionerlari birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan respublika slyotida ishtirok etish imkoniyatini qo‘lga kiritgan [18].

Andijon oblastidagi 134 ta pioner oromgohida 84 ming o‘quvchi dam olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Biroq, shunga qaramasdan, oromgohlarni mavsumdan avval tayyorlash tizimiga jiddiy e’tibor qaratmagan oromgohlar ham mavjud edi. Ta’mirlash ishlari oxiriga yetkazilmagan. Zarur kadrlar bilan ta’minlash masalasi ortga surib kelingan. Jumladan, Baliqchi va Izboskan rayonlarida vaziyat ayni shunday ekanligi qayd etilgan. Pioner yetakchilarining tajribasizligi tadbirlarning saviyasiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Turizm pioner yozida o‘tkaziladigan katta tadbirlardan biri bo‘lgan. U bolalar tasavvur doirasini kengaytirgan. Ularni jismoniy jihatdan chiniqtirgan [19].

1963-yilda Toshkent oblastining 35 ta pioner oromgohida 35 mingga yaqin o‘quvchi sog‘lomlashtirilgan. Poytaxtning “Zorka”, “Koster” pioner oromgohlari eng namunali oromgohlar sifatida tanilgan. 13 gektar yer maydonini egallagan bu oromgohlarda 1250 nafardan oshiq pionerlar dam olgan [20]. Toshkent oblastidagi kolxozlararo pionerlar oromgohlarida 23 ming nafar o‘quvchi dam olgan. Biroq Orjonikidze rayonidagi 20 ta oromgohning sog‘lomlashtirish maydonchalari o‘z vaqtida mavsumga tayyor bo‘lmagan. Maktablardagi oromgohlar aslida ochilmagan bo‘lsa-da, ochildi deb hisobot berilishi natijasida o‘quvchilar oromgohlardan ketib qolish holatlari ko‘paygan. Bu bo‘yicha metodik yordamlar ko‘rsatilmagan [21].

1967-yilda Toshkent oblastida 342 ming o‘quvchidan 161 ming 897 nafari yozgi dam olish oromgohlariga jalb etilgan. Kolxoz va sovxozlararo oromgohlarga esa 15 ming o‘quvchi jalb qilingan. Bu oromgohlarning aksariyati mehnat oromgohlari bo‘lgan. Bekobod va Orjonikidze rayonlarida sport-sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu oromgohlarda 1200 nafar o‘quvchi sog‘lomlashtirilgan. 1100 o‘quvchi esa sayohat va poxodlarga chiqqan. 1966-yilda oblastning 17 ta kolxoz va 9 ta sovxozida pioner oromgohlari faoliyat olib borgan. 1967-yilda esa 32 ta kolxoz va 11 ta sovxozda pioner oromgohlari tashkil etilgan [22]. 1968-yilda Angren shahri hududida 350 o‘rinli yozgi dam olish oromgohi barpo etildi. Ushbu oromgoh tog‘ yon bag‘ridaligi tufayli tog‘ga poxodlarning muntazam tashkil etilishi bilan boshqa oromgohlardan ajralib turadi. Ushbu oromgohda har mavsumda 375 nafar o‘quvchi yoshlar dam olishi tashkillangan. 1969-yildan pioner oromgohlarida siyosiy o‘quvlar tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilgan [23].

1969-yilda KPSS Markaziy qo‘mitasi, SSSR Vazirlar Kengashi va Butunittifoq kasaba uyushmalari Markaziy kengashining “Mamlakatda turizm va ekskursiyalarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Shuningdek, turizm sohasini xizmatlar sohasining yetakchi tarmog‘iga aylantirish vazifalari qo‘yilgan. Qaror ijrosi doirasida 1971–1975-yillarda turizm sohasi moddiy bazasini mustahkamlash uchun 500 million rubl mablag‘ ajratilgan. Turistik oromgohlar soni 1000 taga, o‘rinlar soni esa 157 mingdan 300 ming o‘ringa ko‘paygan [5]. 1972-yilda Toshkent oblastida bir nechta yangi pioner oromgohi faoliyat boshlagan. Jumladan, “SSSRning 50 yilligi” hamda Agregat zavodiga qarashli “Qizil galstuk” shular jumlasidandir. Ularning birinchisi Bo‘stonliqda joylashgan bo‘lsa, ikkinchisi Angrenda joylashgan. Bu oromgohlarning har smenasida 200 kishi dam olgan. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun esa “Chimyon” turistik bazasi mavjud bo‘lgan [24].

Mahalliy yoshlarning dam olishini tashkillash maqsadida Chirchiqdagi “Sredazximmash”

zavodi tomonidan Xo‘jakent yaqinidagi Qorako‘l qishlog‘ida joylashgan pioner oromgohi namunali tarzda ta’mirlangan. Cho‘milish havzasi va sport shaharchasi barpo etilgan. Zavod kasaba uyushmasi mahalliy komiteti oromgoh uchun ko‘chma kino, radiouzel va sport inventarlari olib bergan. Natijada bu yerda bir vaqtda 300 kishi dam olib, davolanish imkoniyatiga ega bo‘ldi [25]. Biroq ba’zi oromgohlar faoliyati to‘g‘ri tashkil etilmagani, qiziqarli o‘yinlar o‘tkazilmagani oqibatida bolalarning oromgohlardan ketib qolish holatlari ko‘paygan. Bolalar vaqtida ovqatlantirilmay, rejimsiz va rejasiz ishlash salbiy oqibatlarga olib kelgan [26].

Qashqadaryo oblastida 1968-yilda 65 mingdan ortiq o‘quvchi ekskursiya va poxodlarga jalb qilingan. 15 dan ortiq maktablarda oromgohlar tashkil etilgan. Bu esa turizmning yanada rivojlanishiga imkon bergan. 1200 o‘quvchi G‘uzor rayonidagi Katta o‘ra, Kitob shaharchasidagi Oqsuv daryosi sohilida tashkil etilgan yosh o‘lkashunoslar oromgohida dam olgan. O‘lka bo‘ylab sayohatlar tashkil etilgan. Zavod va fabrikalarga ekskursiyalar uyushtirilgan. 293 ta BARS otryadi, 1100 ta turistik guruhlar mavjud bo‘lgan. O‘quvchilar, asosan, Oqsuv, Tanqas daryolari, Hisor va Taxtaqoracha tog‘lari, Shahrisabzning tarixiy yodgorliklari, Kitobdagi kenglik stansiyasini tomosha qilishgan. 1500 o‘quvchi esa Leningrad, Moskva, Riga, Ulyanovsk, Toshkent va Farg‘ona vodiysiga sayohat qilgan [27]. Yakkabog‘ rayonidagi “Yoshlik” pioner oromgohi Yakkabog‘ daryosining qirg‘og‘ida joylashgan. 1967-yilda oshxona, 3 ta korpus, 1 ta ovqatlanadigan xona, hovuz, ichimlik suvi, voleybol va basketbol maydonchalari qurib foydalanishga topshirilgan. Oromgohga olib boradigan 12 km. yo‘l tekislangan. Bir smenada 123 nafar o‘quvchi dam olgan. Asosan Chiroqchi, Yakkabog‘, Qarshi, Koson, Qamashi, Shahrisabz rayonlaridan dam oluvchilar kelgan. O‘quvchilar Pishkamar, Chimqo‘rg‘on hududlariga ekskursiyaga chiqqan [28].

Surxondaryo oblasti Sariosiyo rayoni o‘rmon xo‘jaligi hududida Sariosiyo rayoni 17-maktab-internatining hamda Lenin rayonidagi 5-sonli maxsus maktab-internatning pioner oromgohlari bo‘lgan. Har mavsumda bu yerda 400 nafar o‘quvchi dam olgan. “Uzselxoztexnika” korxonasi tomonidan o‘rmon xo‘jaligi hududida yana bir pioner oromgohi barpo etilgan. 300 o‘rinli keng ekranli kinoteatr, zamonaviy oshxona, stadion ham barpo etilgan. Bu yerda 150 nafar o‘quvchi dam olgan [29]. Denov rayonining Moskva, Lenin nomli, “Sotsializm” kolxozlari yozgi mehnat oromgohlari tashkil etishga alohida ahamiyat qaratgan. Bu oromgohlarda mavsum davomida mehnatkashlarning 770 nafar farzandlari dam olgan. Bundan tashqari Jdanov kolxozida kolxozlararo pioner oromgohida 1150 nafar o‘quvchi sog‘lomlashtirilgan [30]. k

Samarqand shahridan uncha uzoq bo‘lmagan hududda “Samarqand” nomli oromgoh bo‘lgan. Bu yer mahalliy xalq tomonidan Qizilqo‘rg‘on deb atalgan. Oromgoh 16 gektardan iborat. O‘quvchilar 24 kun davolangan. Moskva, Kiyev, Leningrad, Sverdlovsk, Yerevan shaharlaridan kelgan dam oluvchilar Samarqand shahrini ham ziyorat qilgan [31]. O‘quvchi yoshlarning yozgi ta’tillarini maroqli o‘tkazish maqsadida oromgohlarda turli sport musobaqalari, kitobxonlik festivallari muntazam tashkil etish bilan bir qatorda ularning salomatligini doimiy mustahkamlashga ham alohida ahamiyat qaratilgan [32]. Samarqand oblastining Yaxton va Omonqo‘ton tog‘lari bag‘rida Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand va Tojikistonning pioner oromgohlari sanatoriy va sihatgohlari bo‘lgan. Shulardan biri Urgut rayonidagi “Zolotinka” pioner oromgohida Samarqand oblastidan tashqari Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston ASSR hududlaridan ham dam oluvchilar muntazam kelib turgan. Bu yerda 1500 nafar o‘quvchi yozgi ta’tilda dam olgan [33].

Kosonsoy Axsikent shahri bilan tengdosh bo‘lib, Tyan-Shan tog‘ining davomi hisoblangan Qoratog‘ning janubi-sharqida joylashgan. Bu yerdagi 10 ta pioner oromgohida 10 mingdan ziyod o‘quvchi dam olishi tashkil qilingan. U yerda mavjud 6 ta choyxona ham dam oluvchilarga xizmat qilgan. “Kosonsoy” oromgohida ijara tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, poxodga chiqmoqchi bo‘lgan turistlar uchun jihozlar ijaraga berilgan. 16 gektar maydonni egallagan oromgohda 2800 kishi dam olishi mumkin bo‘lgan. Bu oromgohni ta’mirlash uchun 148 ming so‘m mablag‘ ham ajratilgan [34].

O‘lkashunoslik harakatini yuksaltirish maktablar zimmasiga yuklangan. Respublikaning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlariga sayohatlar uyushtirilgan. O‘lkashunoslik ekskursiyalariga mamlakat bo‘y-

lab 500 ming nafar o‘quvchi qamrab olingan. “SSSR – mening vatanim” turistik marshruti bo‘yicha, asosan, jangovar shuhrati bilan mashhur bo‘lgan joylarga sayohatlar uyushtirilgan. Bu borada respublika bo‘yicha muzeylar soni 320 tani tashkil etgan. 86 ta o‘lkashunoslik muzeyida 200 ta jangovar shuhrat mavzusiga bag‘ishlangan xonalar, 376 ta internatsional burchaklar tashkil etilgan [35].

Yoshlarni arxitektura, san’at, qurilish sohasidagi bunyodkorlik bilan tanishtirish, tarixiy-madaniy merosni asrashga o‘rgatish maqsadida oblast bo‘ylab 259 marta ekskursiya uyushtirilgan. Bu ekskursiyalarda 4 mingdan ziyod pionerlar qatnashgan. Mulla Qirg‘iz madrasasi ateistik targ‘ibot muzeyiga aylantirilganligi tufayli uning 29 ta xonasida pionerlar poxodlarda to‘plagan o‘lka tarixi bilan bog‘liq eksponatlar muntazam yig‘ib borilgan [36]. O‘quvchi yoshlarning har faslda 2 yoki 3 marta tabiat qo‘yniga sayohat qilishi ularning nutqi oshishiga, tasavvuri hamda tafakkuri kengayishiga sabab bo‘lgan [37]. Shuning uchun ham o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning arxeologik ekskursiyasi uyushtirilib turilgan. Agar arxeologik yodgorlik yangi topilgan, fanga noma’lum bo‘lsa, unda arxeologik yodgorlik bilan tanishtirish uchun ekskursovod yordamidan foydalanilgan [38].

Turizm sayyohlarning jismoniy chiniqishiga yordam bergan. Jumladan, Sarichelakka qilingan 12 kunlik ekskursiya davomida 8 marta tabiat qo‘yniga poxodlarga chiqilgan. Bu o‘quvchilarga joylarning xususiyati to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini bergan [39]. SSSRning 50 yilligi munosabati bilan “Sputnik” yoshlar turistik byurosi tomonidan “Toshkent – Moskva – Leningrad – Kiyev” marshruti bo‘ylab 15 kunlik sayohat tashkil etilgan [40]. 1974-yilda KPSS MKning “Pionerlar va maktab o‘quvchilarining dam olishini tashkil etishni yanada yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. 1975-yilda O‘zbekiston SSRda 1309 ta pioner oromgohi mavjud bo‘lgan. Shundan 273 tasi shahardan tashqarida, 459 tasi sovxoz va kolxozlar tarkibida, 282 tasi maktablar negizida tashkil etilgan. O‘zSSRdagi namunali pioner oromgohlari sifatida “Rohat” (QASSR), “Chimyon” (Toshkent), “Shofirkon” (Buxoro), “Shohimardon” (Farg‘ona), “Shirmonbuloq” (Andijon), “Ko‘ksaroy” (Namangan) singari pioner oromgohlarini ko‘rsatish mumkin [41].

1981-yilda Jizzax oblastida joylashgan “Do‘stlik”, “Ulibka”, Ulyanov nomli, G‘allaorol rayonidagi O.Koshevoy nomidagi, Lenin nomidagi hamda “Yunost” oromgohlarida oshxona, basseyn, sport maydonchalari talab darajasida bo‘lmagan. H.Olimjon nomidagi, ”Rucheek”, “Goluboy Ogonyok”, “Oktabr”, “Irrigator”, “Oktabrning 50 yilligi” kabi pioner oromgohlarida ta’mirlash ishlari amalga oshirilmagan. O‘sha yili o‘quvchilar dam olishning 9 turi bo‘yicha hordiq chiqargan. Oblastdagi 19 ta oromgohda o‘quvchilar uch smenada dam olgan. 8320 nafar o‘quvchi dam olishi ko‘zda tutilgan. Shundan 1100 nafari sanatoriy tipidagi lagerlarda, 1000 nafar o‘quvchi kolxoz va sovxozlararo oromgohlarda, 600 nafar o‘quvchi sport-sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam olgan. 41650 nafar o‘quvchi turistik ekskursiyalarga jalb etilgan [42]. Oblastda mavjud 20 ta pioner oromgohida 9200 nafar o‘quvchi dam olgan. 2250 nafari sanatoriy tipidagi, 813 nafari mehnat va dam olish oromgohida, 2180 nafar o‘quvchi maktablar qoshida tashkil etilgan oromgohlarda dam olgan, 41770 nafar o‘quvchi sayohat va ekskursiyaga yo‘naltirilgan. 18280 nafar o‘quvchining o‘zlari yashab turgan joylarda dam olishi tashkillangan. Biroq ayrim pioner oromgohlari mavsumga tayyor bo‘lmagan. Jumladan, H.Olimjon nomli, “Irrigator”, “Kosmos” pioner oromgohlari e’tiborsiz ahvolda bo‘lgan. Ta’mirlash, estetik bezash, jihozlash ishlari yakunlanmagan. Ularga olib boradigan avtomobil yo‘llari tartibga keltirilmagan. Ayrim oromgohlarda basseyn mavjud bo‘lmagan. Gagarin nomli hamda Lenin nomli pioner oromgohlarida ham ahvol achinarli bo‘lgan [43].

Zomin rayonidagi Dzerjinskiy nomli, “Oktabrning 50 yilligi”, “Yunost” oromgohlari o‘rganilganda, bolalarning ertalabki mehnat tarbiyasi soatlari 1,5 soat davom etganligi, bu borada ota-onalardan ham shikoyatlar kelib tushganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, otryad bayroqlari, gorn va barabanlar o‘z vaqtida sotib olinmaganligi tufayli boshqa oromgohlardan vaqtincha olib turishga to‘g‘ri kelganligi qayd etilgan. Kasaba uyushmalari o‘quvchilarning yo‘llanmalariga muhr bosmaganlik holatlari o‘quvchilar va ota-onalarning sarson bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, poliklinikalarda o‘quvchilarni tibbiy ko‘rikdan xo‘jako‘rsinga o‘tkazilganligi natijasida qayta ko‘rikda kasallik

alomatlari aniqlanish holatlari 18 nafarni tashkil etgan. Meva-sabzavotlar o‘z vaqtida yetkazib berilmaganligi tufayli ularni bozor narxida sotib olishga to‘g‘ri kelgan [44].

1982-yilda kasaba uyushmasi tashkilotlari pioner oromgohlarida 18628 nafar o‘quvchi dam olgan. Shu jumladan, shahar tashqarisidagi pioner oromgohlarida 5106 nafar o‘quvchi dam olgan. Jami 46 ming o‘quvchi yozgi oromgohlarga jalb etilgan. Shahar tipidagi oromgohlarda esa 12 ming o‘quvchi dam olgan. Keyingi yillarda “Avtomobilist”, “Mexanizator”, “Energetik” pioner oromgohlari ishga tushirilgan. Shovot rayoni “Kolos” sovxozida ham pioner oromgohi ish boshlagan. Xazorasp rayonidagi Lenin nomli, Xonqa rayonidagi Al-Xorazmiy nomli, Gurlan rayonidagi “Yangi obod”, “Guliston”, Bog‘ot rayonidagi “Bog‘ot” sovxozlaridagi pioner oromgohlarida barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan. Ayrim pioner oromgohlarida, jumladan, “Yosh tabiatshunos”, “Sport”, “Yosh texnik” oromgohlarida o‘quvchilar kasblar bo‘yicha bilim orttirgan. “Kosmos” pioner oromgohida bir smenada 320 o‘quvchi dam olgan. Ammo lagerda ayrim povilionlar ta’mirtalab bo‘lib qolganligi tufayli 160 nafar o‘quvchini qabul qila olgan [45]. Dzerjinskiy nomli maktabning “Rohat” pioner oromgohi Xorazm qurilish montaj tashkiloti tomonidan qurib berilgan. Oromgohda shaxmat, shashka, voleybol, basketbol to‘garaklari faoliyat olib borgan. O‘quvchilar paxta dalalariga, muzey va madaniyat saroylariga ekskursiyalarga olib chiqilgan [46]. Xorazm otchopar zonasida 320 o‘rinli pioner oromgohi qurilishi boshlangan. Shuningdek, “Mexanizatorlar” oromgohining ochilishi bo‘lib o‘tgan [47].

“Sputnik” byurosi asosan uch yo‘nalish bo‘yicha turistik yo‘llanma bilan xorij mamlakatlarida, sovet davlati shaharlarida va xalqaro yoshlar markazlarida dam olishni tashkil qilgan. 1987-yilda 196 nafar sayohatchi Chexoslovakiya, Vengriya, Yugoslaviya, Daniya mamlakatlari bo‘ylab sayohat qilgan. 150 nafar sayyoh esa turistik markazlarda dam olgan. 2,5 ming nafar yigit-qizlar sovet davlati shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan. 1988-yilda esa 500 nafar yigit va qizlar yo‘llanma bilan sayohatga yuborilgan. Jizzax oblastidan 5000 nafar yigit va qizlar sayohatga chiqarilgan. Bolgariyaga qilingan sayohat davomida Afrika qit’asi, Janubiy Amerika, Buyuk Britaniyadan kelgan turistlar bilan sport musobaqalari uyushtirilgan [48]. 1989-yildan O‘zbekiston hukumati va YuNESKO hamkorligida “Buyuk Ipak yo‘li” ilmiy ekspeditsiyasi loyihalari doirasida Surxondaryo oblastida “Buyuk Ipak yo‘lida Surxondaryo” turistik marshruti ishlab chiqilgan. Ushbu marshrut orqali mamlakatning qadimiy shaharlariga sayohatlar uyushtirilgan [12].

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, yoshlar turizmi asosan rekriatsion mintaqalarda bolalar oromgohlari tashkil etish orqali amalga oshirilgan, o‘quvchi va talabalar dunyoqarashini sovet davlatining g‘oyaviy-mafkuraviy maqsadlariga muvofiq shaklda yo‘naltirishga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “mehnat – rohat” oromgohlari niqobi ostida yoshlarni bolalikdan ishchi kuchi sifatida shakllantirishga harakat qilingan.

Adabiyotlar:

1. *Какабадзе Э.* Формирование системы государственного управления в сфере медицинского и лечебно-оздоровительного туризма: Дисс. ... канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2020. – 144 с.

2. Дам олиш уйлари тўғрисида Ленин декретининг 30 йиллиги // Қашқадарё ҳақиқати, 1951 йил 15 май.

3. *Аҳмедов А.* Тароват // Совет Ўзбекистони, 1976 йил 9 сентябрь.

4. *Хусанов М.* Бўстонлиқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 105 б.

5. *Соколова М.* История туризма [Электронный ресурс]. URL: https://www.gumer.info/Travel/sokol/14.php (Дата обращения: 18.01.2023)

6. Болалар ёзги соғломлаштириш кампаниясига намунали тайёрланайлик // Қашқадарё ҳақиқати, 1951 йил 16 май.

7. *Путрик Ю.* Историческая преемственность традиций в отечественном туризме // Политика и общество, 2012. – № 6(90). – С. 91–98.

8. *Заклязминская Э.* Экономика туризма Китайской народной Республики: Дисс. ... канд. эконом. наук. – Москва, 2018.

9. *Квартальнов В.А., Федорченко В.К.* Туризм социальный: история и современность. – Киев: Наукова думка, 1989. – 342 с.

10. *Умрзоқов Ш*. 600 ўқувчига “СССР туристи” ва “Ёш турист” значёги берилди // Тошкент ҳақиқати, 1959 йил 9 сентябрь.
11. Болаларнинг ёзги дам олишини тўғри ташкил этайлик // Коммунист, 1969 йил 1 март.
12. *Муҳаммаджонов З*. Пионер туристик саёҳатига // Тошкент ҳақиқати, 1960 йил 11 июнь.
13. Дўстлик йўли // Коммунист, 1969 йил 13 август.
14. *Йўлдошев К*. Қишда ёз ташвиши // Коммунист, 1985 йил 26 октябрь.
15. *Муҳиддинов З.* Тоғлар қучоғида // Коммунист, 1969 йил 25 июль.
16. *Қодиров И.* Салом лагерь // Коммунист, 1970 йил 11 июнь.
17. *Ражабов С.* “СССР – менинг Ватаним” // Коммунист, 1971 йил 23 декабрь.
18. *Шодмоналиев О*. Ёш турист-ўлкашунослар слёти // Коммунист, 1972 йил 9 май.
19. Пионер ёзи // Коммунист, 1974 йил 23 июнь.
20. *Ёқубов С*. Ёзингиз соз ўтсин // Тошкент ҳақиқати, 1963 йил 2 июнь.
21. *Собиров С*. Пионер ёзи соз ўтмоқда // Тошкент ҳақиқати, 1966 йил 20 июль.
22. *Собитов С.* Пионер ёзи соз ўтсин // Тошкент ҳақиқати, 1967 йил 7 июнь.
23. *Халилов А*. “Ниҳол”даги оромгоҳ // Совет Ўзбекистони, 1976 йил 8 август.
24. Пионер ёзи бошланди // Тошкент оқшоми, 1972 йил 5 июнь.
25. *Сихарулидзе Т.* Болаларга ғамхўрлик // Тошкент ҳақиқати, 1957 йил 16 июнь.
26. *Раҳимов М*. Болаларнинг ёзги дам олишларини намунали ташкил қилайлик // Тошкент ҳақиқати, 1959 йил 16 июль.
27. *Давлетов Ш*. Ёз соз ўтади // Қашқадарё ҳақиқати, 1968 йил 18 май.
28. *Худоёров Н*. Лагерда // Қашқадарё ҳақиқати, 1969 йил 1 июль.
29. *Раҳмонқулов М*. Ўрмон оғушида // Ленин байроғи, 1967 йил 27 декабрь.
30. *Назиров Қ*. Пионер ёзи яқин // Ленин байроғи, 1969 йил 3 июнь.
31. *Ўлмасов И.* Оромгоҳга келинг // Ленин йўли, 1971 йил 30 октябрь.
32. *Халилов А.* Дам олиб, чиниқиб // Авангард, 1977 йил 7 июль.
33. *Мусамуродов К*. Оромгоҳда // Ленин йўли, 1971 йил 24 июль
34. *Олимжонов Х.* Косонсой // Наманган ҳақиқати, 1979 йил 27 июнь.
35. *Ўтанов Х*. Мактабда туризмни ривожлантирайлик // Наманган ҳақиқати, 1973 йил 17 июнь.
36. *Аҳмедов А*. “Шодлик” оромгоҳида // Наманган ҳақиқати, 1977 йил 19 февраль.
37. *Абдуллаев Қ*. Экскурсия ва нутқ ўстириш // Совет мактаби, 1977. – № 7. – Б. 52–56.
38. *Раҳматуллаев Т*. Археология экскурсиялари // Совет мактаби, 1976. – № 2. – Б. 46–49.
39. *Мирзаев Ф.* Чиниқиш // Наманган ҳақиқати, 1973 йил 2 август.
40. *Иброҳимов М.* Мароқли саёҳат // Наманган ҳақиқати, 1973 йил 27 январь.
41. Ўзбек совет энциклопедияси (ЎзСЭ). 14 томлик. 8-том. / Муҳаррир: И.Мўминов. – Тошкент: “Ўзбек совет энциклопедияси”нинг Бош редакцияси, 1976. – 546 б.
42. *Пўлатов С*. Оромгоҳлар чорламоқда // Жиззах ҳақиқати, 1981 йил 31 май.
43. *Ўролов Н*. Лагерлар мавсумга шайми? // Жиззах ҳақиқати, 1983 йил 7 май.
44. *Каримов Н*. Лагердан мамнунмисан, кичкинтой? // Жиззах ҳақиқати, 1988 йил 23 июль.
45. *Худойберганова О.* Пионер ёзини намунали ўтказайлик // Хоразм ҳақиқати, 1983 йил 18 июнь.
46. *Сафаров Р*. “Роҳат”да роҳатланиб // Хоразм ҳақиқати, 1980 йил 24 июль.
47. *Бобожонов Б.* Сўлим соҳил қўйнида // Хоразм ҳақиқати, 1980 йил 4 июль.
48. *Юнусов Р*. “Спутник” саёҳатга жўнатмоқда // Жиззах ҳақиқати, 1987 йил 1 октябрь.
49. Развитие туризма в СССР. [Электронный ресурс]. URL: https://svastour.ru/articles/puteshestviya/vidy-turov/razvitie-turizma-v-sssr.html (Дата обращения: 18.01.2023)
50. *Тиловов Б.* Ўзбекистон халқлари тарихини ўрганишда Сурхондарё область ўлкашуносларининг ўрни // Совет мактаби, 1989. – № 6. – Б. 21–22.

THE ROLE OF CHILDREN'S RESORTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF SOVIET AUTHORITY

Muzaffarjon Sh. Mansurov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 72-81.

[1]National research Institute for professional development of pedagogues and training in new methods, Tashkent, 100095, str. Ziyo, 6. (Uzbekistan). E-mail: avloniy@xtv.uz

Keywords: *children's camps, labor camps, youth tourism, summer vacation, school camps, collective farm camps.*

Youth tourism in the years of the Soviet Union began to develop in the 20s of the 20th century. Children's camps are organized in the form of union, republic, local and collective farm, school, labor camps. During the summer vacation, various cultural events and tourist trips around the republic were organized. Through this, it was aimed at strengthening their loyalty to communist ideas and increasing the level of endurance. Youth tourism was formed in the 20s of the 20th century as a component of proletarian tourism and became an integral part of school programs. During this period, special importance was also attached to the teaching of excursion books. It was shown that natural science tried to attract students to tourism by organizing trips along historical-revolutionary roads.

From 1922 to 1940, the number of camps increased 10 times, but they did not have the opportunity to attract school-age students to a full-fledged recreation. From the 1950s, youth tourism also had to adapt to the conditions of the Cold War. During this period, the legal and structural mechanism of rest in the camps was fully formed. But during this period, although the system of issuing cheap tickets for young people was established, there was not even enough space to sit on the trains, which caused the dissatisfaction of tourists. The Sputnik tourist organization began to pay special attention to the glory of the Soviet state by attracting young people between the ages of 16 and 30 to travel, organizing vacations in camps, sending them on trips to foreign countries, organizing trips on tourist trains within the framework of the union. In the Soviet Union, schoolchildren from 7 to 15 years of age were involved in pioneer camps.

In the 1960s, it became known that at least 23,000 schoolchildren were involved in the summer harvest under the guise of recreation in inter-collective labor camps in the Tashkent region. There were many cases of students leaving the camps due to the fact that the sports grounds of the pleasure camps were in a state of disrepair, and cultural events were not organized at a high level. It turned out that the school camps were organized only for formality.

Since the 1970s, expeditions named "USSR my Motherland" have been organized regularly. Tourist squads were established in each district, and teachers of history and geography were involved as squad leaders. In 1971-1975, the number of campsites was increased to 1000 for the purpose of tourism development. As a result, the number of places was increased from 157 thousand to 300 thousand. Even then, on average, only 20 percent of the students could be attracted to the camps.Even in the 1980s, there was no change in the activities of summer resorts. The fact that no attention was paid to the maintenance of the Jizzakh camps, the lack of equipment, and the bad condition of the roads caused the dissatisfaction of vacationers and their parents. Even in 1982, it was revealed that in the summer camps of Jizzakh region, there was a lack of squad flags, horns and drums, students were not given medical examinations, and fruit and vegetable products were not delivered on time.

References:

1. Kakabadze, E. (2020) Formirovanie sistemy gosudarstvennogo upravleniya v sfere medicinskogo i lechebno-ozdorovitel'nogo turizma [Formation of a public administration system in the field of medical and health tourism]. The Dissertation for the degree of Candidate of Economic Sciences. Sankt-Peterburg.

2. (1951). Dam olish uylari to'g'risida Lenin dekretining 30 yilligi [30th anniversary of Lenin's decree on holiday homes The 30th anniversary of Lenin's decree on rest houses]. *Qashqadaryo haqiqati.* 15 May 15. No. 94.

3. Akhmedov, A. (1976) Tarovat [Beauty]. *Sovet O‘zbekistoni*. September 9.
4. Khusanov, M. (1985) *Bo‘stonliq* [Bostonliq]. Tashkent: Uzbekistan.
5. Sokolova, M. Istoriya turizma [History of tourism]. URL: https://www.gumer.info/Travel/sokol/14.php (Date of Access: 18.01.2023)
6. (1951). Bolalar yozgi sog‘lomlashtirish kampaniyasiga namunali tayyorlanaylik [Let’s prepare in an exemplary way for the children’s summer health campaign]. *Qashqadaryo haqiqati*. May 16. No. 95.
7. Putrik, Yu. (2012) Istoricheskaya preemstvennost tradisij v otechestvennom turizme [Historical continuity of traditions in domestic tourism]. *Politics and Society*. 6 (90). Pp. 91–98.
8. Zaklyazminskaya, E. (2018) Ekonomika turizma Kitajskoj narodnoj Respubliki [Tourism Economics of the People’s Republic of China Specialty]. Dissertation for the degree of Candidate of Economic Sciences. Moscow.
9. Kvartalnov, V.A., Fedorchenko, V.K. (1989) Turizm socialnyj: istoriya i sovremennost [Social tourism: history and modernity]. Kiyev.
10. Umrzakov, Sh. (1959) 600 o‘quvchiga “SSSR turisti” va “Yosh turist” znachyogi berildi [‘600 students were given the sign of ‘USSR tourist’ and ‘Young tourist’’]. *Tashkent haqiqati*. September 9.
11. (1969). Bolalarning yozgi dam olishini to‘g‘ri tashkil etaylik [Let’s properly organize children’s summer vacation]. *Kommunist*. March 1. No 43.
12. Muhammadjonov, Z. (1960) Pioner turistik sayohatiga [Pioneer tourist trip]. *Toshkent haqiqati*. June 11.
13. (1969). Do‘stlik yo‘li [The way of friendship]. *Kommunist*. August 13.
14. Yo‘ldoshev, K. (1985) Qishda yoz tashvishi [Anxiety of summer in winter]. *Kommunist*. October 26.
15. Muhiddinov, Z. (1969) Tog‘lar quchog‘ida [In the arms of the mountains] *Kommunist.* July 25.
16. Kadirov, I. (1970) Salom, lager [Hello, camp]. *Kommunist.* June 11.
17. Rajabov, S. (1971) SSSR – mening Vatanim [USSR is my homeland] *Kommunist.* December 23.
18. Shodmonaliev, O. (1972) Yosh turist-o‘lkashunoslar slyoti [A slot for young tourists and local historians]. *Kommunist.* May 9.
19. (1974). Pioner yozi [Pioneer summer]. *Kommunist.* June 23.
20. Yoqubov, S. (1963) Yozingiz soz o‘tsin [Let your writing speak] *Toshkent haqiqati*. June 2.
21. Sobirov, S. (1966) Pioner yozi soz o‘tmoqda [Pioneer Summer is Passing by]. *Toshkent haqiqati.* July 20.
22. *Sobitov, S.* (1967) Pioner yozi soz o‘tsin [Let the Pioneer Summer pass]. *Toshkent haqiqati*. June 7.
23. Khalilov, A. (1976) ‘Nihol’dagi oromgoh [Rest in ‘Nihol’]. *Sovet O‘zbekistoni.* August 8.
24. (1972) Pioner yozi boshlandi [Pioneer summer has begun] *Toshkent oqshomi.* June 5.
25. Sikharulidze, T. (1957) Bolalarga g‘amxo‘rlik [Caring for children]. *Tashkent haqiqati*. June 16. No 120.
26. Rahimov, M. (1959) Bolalarning yozgi dam olishlarini namunali tashkil qilaylik [Let’s organize children’s summer holidays in an exemplary way]. *Tashkent haqiqati.* July 2. No 129.
27. Davletov, Sh.(1968) Yoz soz o‘tadi [Summer will pass]. *Qashqadaryo haqiqati*. May 18.
28. Xudoyorov, N. (1969) Oromgohda [In the camp]. *Qashqadaryo haqiqati*. July 1.
29. Rahmonqulov, M. (1967) O‘rmon og‘ushida [At the edge of the forest] *Lenin bayrog‘i*. December 27.
30. Nazirov, Q.(1969) Pioner yozi yaqin [Pioneer summer is near] *Lenin bayrog‘i.* June 3.
31. O‘lmasov, I. (1971) Oromgohga keling [Come to rest]. *Lenin yo‘li.* October 30.
32. Khalilov, A. (1970) Dam olib, chiniqib [Rest and exercise]. *Avangard*. July 7.
33. Musamurodov, K. (1971) Oromgohda [In the camp]. *Lenin yo‘li*. July 24.
34. Olimjonov, Kh. Kosonsoy [Kasansay]. *Namangan haqiqati.* June 27.
35. O‘tanov, Kh. (1973) Maktabda turizmni rivojlantiraylik [Let’s develop tourism at school]. *Namangan haqiqati.* June 17.
36. Akhmedov, A. (1977) “Shodlik” oromgohida [At the ‘Shodlik’ resting place]. *Namangan haqiqati.* February 19.
37. Abdullaev, Q. (1977) Ekskursiya va nutq o‘stirish [Excursion and Speech Cultivation]. *Sovet maktabi.* No. 7. Pp. 52-56.
38. Rakhmatullayev, T. (1976) Arxeologiya ekskursiyalari [Archaeological Excursions]. *Sovet maktabi.* No. 2. Pp. 46-49.
39. Mirzayev, F.(1973) Chiniqish [Exercise]. *Namangan haqiqati.* August 2.
40. Ibrohimov, M. (1973) Maroqli sayohat [Interesting trip]. *Namangan haqiqati.* January 27.

41. Mo‘minov, I. (ed.) (1976) O‘zbek sovet ensiklopediyasi (O‘zSE). [Uzbek Soviet encyclopedia]. In 14 volumes. Vol. 8. Tashkent: “O‘zbek sovet ensiklopediyasi“ning Bosh redaksiyasi.

42. Po‘latov, S. (1981) Oromgohlar chorlamoqda [Restaurants are inviting]. *Jizzax haqiqati.* May 31.

43. Orolov, N. (1983) Oromgohlar mavsumga shaymi? [Are the camps ready for the season?]. *Jizzax haqiqati*. May 7.

44. Karimov, N. (1988) Oromgohdan mamnunmisan, kichkintoy? [Are you satisfied with the camp, little one?]. *Jizzax haqiqati*. July 23.

45. Khudoyberganova, O. (1983) Pioner yozini namunali o‘tkazaylik [Let’s spend an exemplary pioneer summer]. *Xorazm haqiqati.* June 18.

46. Safarov, R. (1980) “Rohat”da rohatlanib [Enjoying in ‘Rohat’]. *Xorazm haqiqati.* July 24.

47. Bobojonov, B. (1980) So‘lim sohil qo‘ynida [Near the beautiful beach]. *Xorazm haqiqati*. July 4.

48. Yunusov, R. (1987) “Sputnik” sayohatga jo‘natmoqda [‘Sputnik’ is sending on a journey]. *Jizzax haqiqati*. October 1.

49. Razvitie turizma v SSSR [Development of tourism in the USSR]. [Online]. URL: https://svastour.ru/articles/puteshestviya/vidy-turov/razvitie-turizma-v-sssr.html (Date of Access: 18.01.2023)

50. Tilovov, B. (1989) O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganishda Surxondaryo oblast o‘lkashunoslarining o‘rni [The role of local historians of the Surkhandarya region in the study of the history of the peoples of Uzbekistan]. *Sovet maktabi*. Issue 6. Pp. 21-22.

Muallif haqida ma’lumot:

MANSUROV Muzaffarjon Sharifjon o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti “Umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va metodikalari” bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi. E-mail: muzaffarzhon.mansurov.86@mail.ru